

<b>Fan platformasi</b>		
Fanning to'liq nomi: <b>Neft-gaz mahsulotlarining ximmotologiyasi</b>		
Fan kodi: NGMX2306	Fanga ajratilgan kreditlar (ECTS): 6	davomiyligi: 1 semestr
Kafedra: Gazni qayta ishlash kimyoviy texnologiyasi		
Fan qaysi yo'nalish talabalari uchun: 70720901-Kimyoviy va neft-gaz kimyoviy texnologiyalar		
Fan amaliyot o'qituvchilari: dots. Igamkulova N.A.		
Fanga ajratilgan umumiy soatlar: 180	Email:	
Fan seminar mashg'ulotlari o'qituvchisi(lari): - Igamkulova N.A. Mirzaaxmedova M.A.		
Prerekvizitlar:		Tanlov turi:majburiy
<b><i>Fanning qisqacha bayoni:</i></b> motor yonilg'i va moylarni fizik-kimyoviy xossalarning ilmiy asoslarini shakllantirish, uskunalarini hisoblashni bilish texnologik jarayonning issiqlik va material balansini tuzish, turli faktorlarni yonilg'i va moylar sifatiga ta'sirini mustaqil tahlil qilish, ishlab turgan texnologik jarayonlarni bakalavriatura yo'nalishidagi talabalarga o'rgatishdan iborat.		

**Fanning maqsadi:** talabalarni maxsus suyuqliklar va moylarning fizik-kimyoviy xossalari bilan tanishtirish hamda ularni ishlab chiqarishdagi nazariy va amaliy bilimlarni chuqurlashtirish yonilg'i va moylar ishlab chiqaradigan korxonalarda mustaqil ishlash uchun va bu yo'nalishda ilmiy izlanish ishlarini olib borish uchun zarur bo'lgan nazariy va amaliy malakalarini shakllantirishdir.

Fan yakunida talabalar quyidagi malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishadi:

fanning nazariy bilim asoslari, maxsus suyuqliklarni va moylarni turlarga ajratishni ilmiy jihatlarini, yonilg'i va moylarning olinishini, ularni ishlatilish soxalarini, maxsus suyuqliklarni va moylarning fizik-kimyoviy parametrlarini, ekspluatasion xususiyatlarini, xususiyatlarini o'zgaruvchanligini, maxsus suyuqliklarni va moylarni kimyoviy tarkibi undagi qo'shimcha birikmalar, mazut tarkibi, mineral qoldig'i va qo'llanilishi to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi;

– maxsus suyuqliklar va moylar tarkibidagi minerallarning turlari va miqdori, ularning mexanik xossalari, sifat ko'rsatkichlari, ularga qo'yiladigan talablar, maxsus suyuqliklar va moylarni ishlab chiqarishdagi texnologik jarayonlarni, maxsus suyuqliklar va moylarning nuqsonlarini bilishi va ulardan foydalana olishi;

– maxsus suyuqliklar va moylarni sinflash va identifikasiyalash, ularni kimyoviy sintez qilish, maxsus suyuqliklar va moylarning termik haroratga bardoshlilikini aniqlash, qovushqoqligini taxlil qilish, maxsus suyuqliklar va moylar kamchiliklari haqidagi ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

#### **Ma'ruzamashg'ulotlari**

Ma'ruza mashg'ulotlari katta sig'imli, multimedia qurilmalari bilan jihozlangan o'quv auditoriyalarida olib boriladi.

#### **Amaliy mashg'ulotlar**

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada har bir akademik guruhga alohida o'tiladi. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tiladi, "Keys-stadi" texnologiyasi ishlatiladi. Ko'rgazmali materiallar va axborotlar multimedia qurilmalari yordamida uzatiladi. Barcha darslar sxema bo'yicha quriladi: lug'at bilan ishlash, grammatik sharhlar,

tegishli tematik matnlar, o'quv mashqlari.

O'quv materialini mustahkamlash uchun juda ko'p joy ajratilgan. Bu o'quvchilarga fan bo'yicha ko'nikmalarni egallashga yordam beradigan testlar, savollar, mashqlar va boshqa topshiriqlardir. Ular bakalavriat talabalarining havaskorlik faoliyatini, reproduktiv faolligini shakllantirishga yordam beradi.

### Mustaqil ta'lim

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan taqdimotlar, guruh bilan ishlanmalar, referatlar tayyorlanadi.

№	Fan mavzulari	Ma'ruza soatlar hajmi	Amaliy mashg'ulot soatlar hajmi	Mustaqil ta'lim soatlari
1	Neft xom ashyosi, uning kimyoviy tarkibi va uglevodorod guruhi. Neftdan yoqilg'i va moylar olish texnologiyalari.	4	8	18
2	Yoqilg'ilarning umumiy xossalari va ularning dvigatel ishiga ta'siri.	4	8	18
3	Benzinda ishlaydigan dvigatellar uchun yonilg'ilar.	4	8	18
4	Dizel dvigatellar uchun yonilg'ilar.	4	8	18
5	Ichki yonuv dvigatellari uchun moylar	4	8	18
6	Transport vositalarida texnik suyuqliklar.	4	8	18
<b>Jami</b>		<b>24</b>	<b>48</b>	<b>108</b>

### Asosiy adabiyotlar

1. Turobjonov S.M., Abidov B.A. Moylar va maxsus suyuqliklar. Darslik. – Toshkent, 2010 y.
2. Кузнецов А.В. Топливо и смазочные материалы. М: Колос, 2007.
3. Кузнецов А.В., Рудобашта С.Р., Симоненко А.В. Теплотехника, топливо и смазочные материалы. М: Колос, 2001.
4. Топливо, смазочные материалы и технические жидкости. Ассортимент и применение / Под. Ред. В.М. Школьникова. – М.: Химия, 1999.
5. Э.В. Бойко химия нефти и топлив. Ульяновск 2007.
6. Данилов А.М. Применение присадок в топливах / А. М. Данилов.– М.: Мир, 2005.

### Qo'shimcha adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. 488 b, T. "O'zbekiston", 2017 y.
2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. 48 b, T. "O'zbekiston", 2017 y.
3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlati birgalikda bar poetam iz. 56 b. T. "O'zbekiston", 2016 y.
4. Мановян А.К. Технология первичной переработки нефти и природного газа. – М.: Химия, 2001.
5. Химмотология. Словар. Понятия, термины, определения. – М.: Знание, 2005.
6. Сафонов А.С. Автомобильные топлива: Эксплуатационные свойства / А.С. Сафонов, А.И.Ушаков, И.В.Чечнекев. – СПб., 2002.

### Axborot manbaalari

1. www.gov.uz — O'zbekiston Respublikasi hukumat portali.

2. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
3. [www.neftpererabotka.com.ru](http://www.neftpererabotka.com.ru)
4. [www.twiripx.com](http://www.twiripx.com)
5. <http://www.organicheskayahimiya.php>

**Kontakt soatlari\*:** mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarish, ularni taqdim etish, zarur ma'lumotlar va turli materiallar bo'yicha savollarga quyidagi grafik asosida o'qituvchiga murojat qilishingiz mumkin:

<b>№</b>	<b>Kun</b>	<b>Vaqt</b>	<b>Xona</b>
1	Chorshanba	12:00 – 16:00	A.N-36 402